

## **Sog'lom Aves 2021-22 o'quv yili**

Sycamore jamoat maktablari (Sycamore Community Schools) barcha o'quvchilar va xodimlarni 2021-22 yilgi o'quv yilini boshlash uchun maktab binolarimizda kutib olishdan xursanddir.

### **Sog'lom Aves 2021-22 o'quv yili uchun asos tamoyillar:**

- ▶ O'quvchilar va xodimlarga g'amxo'rlik qilish - ayniqsa ota zaiflarga
- ▶ O'quvchilar o'rganishidagi ustuvorliklarni belgilash
- ▶ Samarali o'qitishni ta'minlash
- ▶ Faoliyatni mahsuldor, samarali va mas'uliyatli olib borish

### **Sog'lom Aves 2021-22 o'quv yili uchun nazarda tutiladiganlar:**

- ▶ Sycamore maktablari barcha o'quvchilar va xodimlarning sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash uchun harakatchan, moslashuvchan va hozirjavob bo'lib qolishi kerak.
- ▶ Maktablarimiz o'quvchilar bilan binoda ishlayotganda, Ogayo sog'liqni saqlash boshqarmasi va mahalliy sog'liqni saqlash boshqarmalari tomonidan ishlab chiqilgan salomatlik va xavfsizlik talablariga rioya qilishlari kerak. Vaziyat o'zgarganda, bu qoidalar ham o'zgarishi mumkin, qaysiki bu butun yil davomida kursga tuzatishlar qilishga olib kelishi mumkin.
- ▶ O'quvchilar yuzma-yuz ta'limdan bahramand bo'lishi va to'liq an'anaviy ta'lim shakliga xavfsiz tarzda qaytishi ustuvor vazifa hisoblanadi.
- ▶ Okrug Sog'lom Aves protokollari bo'yicha ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni davom ettiradi.
- ▶ Okrug gigiyena, tozalash va xavfsizlik tartibotlarini amalga oshirgan holda infeksiya tarqalish ehtimolini kamaytiradi. Biroq, har qanday jamoat joyida bo'lgani kabi, maktabda ham xavfning ham ma'lum darajasi saqlanib qoladi, uni bartaraf etib bo'lmaydi.

**2021-22 yillardagi Sog'lom Aves qo'llanmasidagi barcha yo'riqlar va protokollar 2021-yil 8-avgustda chop etilgan va ular o'zgartirilishi mumkin.**

Need help? Besoin d'aide pour? ¿Necesita ayuda? Нужна помощь? Yordam kerakmi? 你需要帮助吗? 도움이 필요하세요?お手伝いします? [Bu yerni bosib](#) Sycamore elchilari bilan bog'laning va tarjima masalasida yordam oling.

## **Sinfda Sog'lom Aves faoliyati**

Maktabga qaytayotgan barcha o'quvchilarimizga xush kelibsiz deya ularni qarshi olarkanmiz, o'quvchilarimiz va xodimlarimizning xavfsizligi biz uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Sycamore jamoat maktablari infeksiyaning oldini olish masalasiga kop pog'onali yondashadi.

**COVID-19 ga qarshi emlash**

Sycamore jamoat maktablari o'quvchilar va xodimlarni, agar ular xohlasalar, COVID-19 ga qarshi emlanishlarini qo'llab-quvvatlaydi. Okrug emlanishga haqli va emlanmoqchi bo'lgan oilalar va xodimlar uchun emlanish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlashda davom etadi.

Ogayo shtatining 244-sonli Qonun loyihasiga (Ohio House Bill 244) binoan, davlat umumta'lim maktablariga hali Oziq-ovqat va dori vositalari sifatini nazorat qilish Bosharmasi (Food and Drug Administration, FDA) tomonidan ma'qullanmagan vaksinalarni buyurish taqiqlangan. Ogayo shtat maktablariga, shuningdek, emlanmaganlar uchun emlanganlardan farqli bo'lgan mashg'ulotlarni o'tkazish orqali ularni kamsitish taqiqlanadi. Shundan kelib chiqib, Sycamore jamoat maktablari:

- O'quvchilar yoki xodimlardan COVID-19 ga qarshi emlashni talab qilmaydi.
- O'quvchilar yoki xodimlardan emlanish holati to'g'risida xabar berishlarini talab qilmaydi.

Infeksiyalangan shaxs bilan kontaktda bo'lganlarni kuzatish maqsadida emlanish holati to'g'risida ixtiyoriy ravishda xabar berish tavsiya etiladi. Emlanish holati to'g'risida ixtiyoriy tarzda berilgan ma'lumotlar Gamilton okrugi sog'liqni saqlash boshqarmasi (Hamilton County Public Health) talablariga muvofiq, karantin zarur yoki zarur emasligini aniqlash uchun faqat kontaktda bo'lganlarni kuzatish davrida ishlatiladi. Ixtiyoriy ravishda xabar berishni Yakuniy shakllar orqali yoki maktab hamshirasi bilan bog'lanish orqali amalga oshirish mumkin.

### Yuz niqoblari

Sycamore jamoat maktablari davom etayotgan COVID-19 pandemiyasiga nisbatan tezkorlik, moslashuvchanlik va mas'uliyat bilan yondoshishi kerak. Tabiiy ofatlarda yordam ko'rsatish guruhi (DART) xodimlar va o'quvchilar uchun bino miqyosida, sinf miyosida va/yoki okrug miqyosida yuz qoplamasi talab qilinishi kerakmi yoki tavsiya qilinishi kerakmi, shuni aniqlashda maslahat berish uchun har hafta salomatlik holati haqida baholash o'tkazadi.

Biroq, federal miqyosdagi buyruqqa ko'ra 2021-yil 13-sentyabrgacha Sycamore transport xizmatlaridan foydalanish paytida niqob va yuzni bekituvchi qoplamalar taqish **majburiy** va ayni shu sanadan keyin bu buyruq muddati tugashi yoki uzaytirilishi mumkin.

2021-yil 18-avgustda, Sycamore ta'lim Kengashi (Sycamore Board of Education) EBA siyosatining yangi tahririni ma'qulladi - unda yuz qoplamasidan foydalanish haqida shunay deyiladi: "O'ta yuqumli kasalliklar jamoatchilik orasida tarqalishi paytida, Maktab okrugi inspektori o'quvchilar, xodimlar, pudratchilar, ko'ngillilar va tashrif buyuruvchilardan maktab hududida va/yoki maktab transportida bo'lgan paytda tegishli yuz niqoblarini kiyishni talab qilishi mumkin."

Agar shunday talab belgilangan bo'lsa, yuzni yopib yurish talablari quyidagi holatlarga taalluqli emas:

- O'quvchi yoki xodim ovqatlanayotganda.
- O'quvchi yoki xodim ochiq havoda tanaffusda bo'lsa, jismoniy tarbiya darsida bo'lsa yoki boshqa ochiq havodagi mashg'ulotlarda bo'lsa.

- O'quvchi yuzini yopib yurish o'quvchining zarur xizmatlarni olish qobiliyatini sezilarli darajada pasaytiradigan mashg'ulot bilan shug'ullanayotgan (masalan, dori-darmonlarni qabul qilish, nutq terapiyasi bilan shug'ullanish) bo'lsa.
- O'quvchi yoki xodim yuzni yopib qo'yish xavf olib kelishi mumkin bo'lgan muhitda bo'lsa.

### Yuzni yopish talabidan ozod qilish

Agar maktab okrugi inspektori bino, sinf va/yoki okrug miqyosida niqob taqish shart degan talabni belgilab qo'ygan bo'lsa, sog'lig'i yoki rivojlanish holati hujjatlashtirilgan o'quvchilar uchun istisnolar berishni so'rab qilingan murojaatlar federal buyruqlar, Ogayo shtati sog'liqni saqlash Boshqarmasi buyruqlar yoki mahalliy okrug/munitsipal buyruqlarga muvofiq ko'rib chiqiladi. Agar bolangizda sog'lig'i yoki rivojlanish holati haqida hujjatlashtirilgan dalili bo'lsa va u holat uning maktab vaqtida niqob taqishga to'sqinlik qilsa, [Yuzni yopish talabidan ozod qilish](#) formasini to'ldiring va tibbiy muassasa bergan tasdiqlovchi hujjatni taqdim eting. Bu formani [www.sycamoreschools.org](http://www.sycamoreschools.org) veb-saytimizning "Sog'lom Aves" (Healthy Aves) bo'limidan topishingiz mumkin. Biz oilalar va xodimlarni 2021-22 o'quv yili boshlanmasidan oldin niqob taqishdan ozoq qilish formasini to'ldirishlarini tavsiya etamizki, agar niqob taqish talabi qo'yilsa, ular undan ozoq ekanliklarini allaqachon hujjatlashtirib qo'ygan bo'ladilar. Niqob taqishdan ozod qilish formasini maktab hamshirasiga taqdim eting, hamshira uni ma'qullash uchun tegishli joyga taqdim etadi.

Agar mahalliy, shtat yoki federal darajadagi sog'liqni saqlash sohasi mutassaddilari yoki qonun chiqaruvchi organlar keyinchalik yuzni yopishga oid biror buyruqni chiqarsalar, okrug buni bajarishi shart bo'ladi.

Yuzni yopish siyosati, undan ozoq qilish va qabul qilingan niqoblar turlari haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun, agar shunday talab qo'yilgan bo'lsa, bizning veb-saytimizning "Sog'lom Aves" bo'limiga tashrif buyuring: [www.sycamoreschools.org](http://www.sycamoreschools.org)

### Tez-tez qo'l yuvish

- Sycamore maktablari maktab kunining boshida va oxirida, ovqatlanishdan oldin va hojatxonadan foydalangandan so'ng tez-tez qo'lni yuvish uchun vaqt ajratadi.
- Qo'lni dezinfeksiya qilish vositasi kun davomida ta'minlanadi.

### Jismoniy masofa saqlash

- Tegishli joylarda kamida 3 fut jismoniy masofa saqlanadi.

### Tozalash va dezinfeksiyalash:

Pandemiya o'quvchilar va xodimlarning sog'lig'ini himoya qilish uchun tez-tez va muntazam ravishda tozalash va dezinfeksiya qilishni ta'minlash orqali qo'shimcha ehtiyot choralarini ko'rishni talab qildi.

- Har bir sinf xonasi tegishli dezinfeksiya qilinadi
  - Stollar, partalar, stullar va eshik tutqichlari tez-tez artib turiladi.

- Oshxona stollari yuqori xavf joylari sifatida kuniga bir necha marta tozalanadi.
- Umumiy joylar va hojatxonalar tez-tez sanitar tozalanadi
  - Sinf hisoblanmaydidan xonalarning eshik tutqichlari kuniga bir necha marta artiladi.
  - Hojatxonalar kuniga bir necha marta tozalanadi va har oqshom yaxshilab dezinfeksiya qilinadi.
  - Clorox total 360 cleaner tozalash vositasi va Clorox Anywhere Hard Surface dezinfeksiyalash spreyi yordamida har kuni kerakli joylarni tozalash, kechasi esa chuqur tozalash amalga oshiriladi.
- Tushlik stollari va stullari tushliklar o'rtasida dezinfeksiya qilinadi
- Kun davomida muhim joylarni tozalashda yordam berish uchun qo'shimcha himoya xodimlar ishga jalb qilinadi

#### Ventilyatsiya va filtrlash tizimlarini nazorat qilish

- Okrug rahbarligi ostidagi profilaktika texnik xodimi kunlik monitoring olib boradi
- Har qanday havo oqimi bilan bog'liq potensial muammolarni hal qilish uchun har chorakda filtr almashtiriladi
- Biz okrugning barcha binolarida yuqori sifatli ventilyatsiya talablariga javob berishimizni ta'minlash uchun okrug pudratchi mexanigimiz bilan yaqindan ish olib boradi.
- Binolarga olib kiriladigan tashqi havo miqdorini oshirish

#### Tanaffus va jismoniy tarbiya

- O'zgartirilgan tanaffus PK-8 sinfi darajalarida ta'minlanadi, shu jumladan:
  - Imkon qadar ochiq osmon ostidagi hududlardan ko'proq foydalanish
  - Umumiy ishlatiladigan qurilma va anjomlardan foydalanishni cheklash yoki ularni har gal foydalangandan so'ng tozalash
  - Tegishli joylarda jismoniy masofani saqlash
- O'zgartirilgan jismoniy tarbiya barcha darajalarda ta'minlanadi, shu jumladan:
  - Imkon qadar ochiq osmon ostidagi hududlardan ko'proq foydalanish
  - Sherikli / guruhli o'yinlarni va umumiy foydalaniladigan jihozlardan foydalanishni cheklash

#### Intizom va Sog'lom Aves protokollari

COVID-19 bo'yicha binodagi xavfsizlik choralari bilan bog'liq intizom qoidalari haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun O'quvchilar va ota-onalar uchun qo'llanmaga qarang.

#### Maktabda Sog'lom Aves faoliyati

2021-22 o'quv yili uchun moslashtirilgan maktab kun tartibi davom etadi:

- Yuqori sinflar maktabi (SHS): 7:20 - 14:08\*
- O'rta sinflar maktabi (Junior High): 08:02 - 15:02\*
- E.H. Greene maktabi: 8:00 am - 14:40 pm\*

- ▶ BA: 09:00 - 15:30\*
- ▶ MD: 09:00 - 15:30\*
- ▶ MT: 09:15 - 15:45 pm\*
- ▶ SY: 09:30 - 16:00 pm\*

\* Avtobus yo'nalishlari o'rtasida dezinfektsiyalash uchun yetarli vaqtni ta'minlash uchun maktabdan uyga javob berish vaqtlari biroz o'zgarishi mumkin.

### Kelish va ketish

Kelish va ketish tartibi binoga qarab farq qilishi mumkin. Bino ma'muriyatidan qo'shimcha ma'lumot oling. Umuman:

#### Kelish

- ▶ Transportdan birin-ketin tushishda oldingi / orqa eshik oldiga xodimlar biriktiriladi. Avtobus va yengil mashidan tushib tarqoq holatda harakatlaniladi
- ▶ Talabalar binoga bir nechta kirish joylari orqali kirib, to'g'ridan-to'g'ri o'z sinf xonalariga o'tishadi

#### Ketish

- ▶ Kunning oxirida farzandlarini maktabdan oladigan ota-onalar o'zlarining mashinalarida kutib turadilar va bolalarni olish uchun belgilangan maxsus joyga mashinani haydab boradilar
- ▶ K-4 sinf o'quvchilarining ota-onalari / oilasiga raqamlangan yorliq beriladi, bu yorliqlar xodimlarga bolalarni kimligini bilish va bolalarni ota-onalariga / oilalariga yetkazish imkonini beradi.
- ▶ K-8 sinflar bilan ishlovchi xodimlar jismoniy masofa saqlanishini ta'minlash uchun o'quvchilarni avtobus parkiga olib boradilar

### Transport

- Sycamore jamoat maktablari okrugi reyklar orasida dezinfektsiyalash imkonini beruvchi to'rt bosqichli transport tizimidan foydalanishni davom ettiradi.
- O'quvchilarni tashish jadvalida faqat bitta muntazam oraliq tafovut amal qiladi
- Har kunlik mukammal tozalash

### Avtobus ish tartibi:

- Kontaktida bo'lganlarni kuzatish maqsadida o'quvchilarga alohida o'rindiq ajratiladi
- Hech bo'lmaganda avtobusda bo'lgan paytda o'quvchilardan 2021-yil 13-sentyabrgacha, federal buyruqqa ko'ra, niqob taqish talab qilinadi.
- Yo'lovchilarni chiqarish va tushirish vaqtida haydovchilar niqob taqishlari kerak bo'ladi. Harakat paytida xavfsizlik nuqtai nazaridan ular yuz qalqoni bilan ta'minlanadi
- Avtobusda qo'lni dezinfektsiyalash stantsiyalari mavjud bo'ladi.

### Bolalar ovqatlanishi

#### 2021-22 o'quv yili uchun bepul ovqatlanish

Sycamore maktablari 2021-22 o'quv yili mobaynida BARCHA maktab o'quvchilari uchun har bir maktabda BEPUL nonushta va tushlik taklif qiladi. AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligi (USDA) butun

o'quv yili uchun ovqat haqida ozod qildi. Shuni yodda tutingki, bu faqat o'quvchining birinchi taomiga taalluqlidir, har qanday ikkinchi taomlar yoki o'quvchi o'zi tanlab oladigan ichimliklar va gazaklar pullik va ular har kuni taklif qilinadi.

#### Nonushta va tushlik tartibi

- Har bir martada kirib ovqatlanadigan o'quvchilar sonini kamaytirish uchun qo'shimcha vaqt / muddat qo'shiladi
- Zarur bo'lsa, oshxonalarda jismoniy masofa saqlash
- Maksimal darajada masofa saqlash uchun boshqa mavjud bo'sh joylardan (masalan, sinfxonalar, sport zallari, majlislar zali va hk) foydalanish
- K-4-sinflar: kontaktda bo'lganlarni kuzatish maqsadida o'quvchilar uchun alohida o'rindiqlar ajratiladi
- 5-12-sinflar: kontaktda bo'lganlarni kuzatish maqsadida o'rindiqlar tayinlanadi va / yoki oldindan tanlanadi
- O'quvchilar tushlik paytida har gal bitta stol nariga borib o'tirishadi

#### Mashg'ulotlar va tadbirlar

Biz o'quvchilar va oilalar ishtirok etishi uchun bir qancha mashg'ulotlar, to'garaklar va tadbirlarni taklif qilishdan xursandmiz! Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham ishtirokchilar maktab kunida amalda bo'lgan "Sog'lom Aves" protokollariga rioya qilishlari kerak. Sport mashg'ulotlarida ishtirokchilar [Ogayo o'rta maktablar sport uyushmasi](#) tomonidan belgilangan sog'liqni saqlash ko'rsatmalariga amal qilishlari kerak.

#### Uyda Sog'lom Aves faoliyati

Sycamore maktablar okrugi salomatlik, xavfsizlik madaniyatini oshirish va o'quvchilarimiz va xodimlarimizni himoya qilish uchun umumiy javobgarlikni kuchaytirishga jiddiy qaraydi.

#### Maktabga sog'lom qaytish uchun ko'p pog'onali yondashuv

1. Uyda har kuni sog'liqni baholash Bu yerni bosib [COVID-19 bo'yicha ota-onalar/vasiylari uchun kundalik nazorat ro'yxati](#) bilan tanishing
2. Maktabda alomatlarini monitoring qilish, zarur bo'lsa, izolyatsiya qilish
3. Ko'p ishlatiladigan narsa-buyumlarni uyda har kuni tozalash

#### Agar betob bo'lsang, uyda qol siyosati

- So'nggi 72 soat ichida harorat 100 ° F bo'lsa
- Yo'tal (astma yoki allergiya kabi surunkali kasalliklarga bog'liq bo'lmagan yo'tal) bor bo'lsa
- Nafas olishning qisqaligi yoki nafas olishning qiyinligi
- Sovuqdan qaltirash
- Horg'inlik
- Mushak yoki tanadagi og'riqlar
- Burun bitishi yoki burun oqishi
- Tomoq og'rig'i
- Bosh og'rig'i

- Ta'm yoki hid bilishning yangidan yo'qolishi
- Ko'ngil aynishi
- Qusish (noma'lum sabab tufayli, ya'ni behuzurlik bilan yoki ovqatlanish bilan bog'liq bo'lmagan holda)
- Ich ketishi

Sog'lom Aves uyda sog'lom bo'lishdan boshlanadi. Siz bizga quyidagilarni bajarishni davom ettirish orqali maktabni xavfsiz saqlashimizda yordam berishingiz mumkin:

- Har kuni sog'liqni baholash:
  - Maktabning birinchi kunidan oldin barcha oilalar [Ota-onalar / vasiylar uchun kundalik COVID-19 nazorat ro'yxati](#) formasiga imzo chekadilar. Maktabdan oldin har kuni, oilalar kasallik alomatlari bor-yo'qligini tekshirishlari va har kuni haroratni tekshirishlari kerak.
- O'quvchilar o'zlarining buyumlari va matoli sumkalarini olib kelib, o'z partalarida saqlaydilar
- Maktabdan uyga olib kelingan o'quv qurollari / shaxsiy buyumlarni dezinfeksiyalash
  - Okrug [Chromebook protokolingizni tozalangni](#) taqdim etadi
- Bolangizni uydan olingan suv idishi bilan maktabga yuboring

#### COVID bilan bog'liq kasallik haqida qanday xabar berish kerak

Oilalar va xodimlar uchun COVID-19 bilan bog'liq kasallik yoki maktabga o'quvchi kelmasligi haqida xabar berishning ikkita varianti mavjud:

- Onlayn xabar berish: Veb-saytimizning "Sog'lom Aves" bo'limida joylashgan COVID-19 bo'yicha davomat hisoboti formasini to'ldiring.
- (513) 686-1707 raqamga, ya'ni Sycamore COVID-19 bo'yicha davomat liniyasiga qo'ng'iroq qiling

#### **COVID-19 borligi tasdiqlangan holatlar va kontaktda bo'lganlarni kuzatish**

Sycamore jamoat maktablari 2021-22 o'quv yili uchun Gamilton okrugi sog'liqni saqlash boshqarmasi (Hamilton County Public Health) bilan birgalikda kontaktda bo'lganlarni kuzatishni davom ettirishlari talab etiladi. Quyidagi ma'lumotlar 2021-yil avgust oyida belgilangan qoidalarga asoslanadi. **O'tgan o'quv yilida bo'lgani kabi, talablar Gamilton okrugi sog'liqni saqlash boshqarmasi, Ogayo sog'liqni saqlash boshqarmasi va CDC ning yangi qoidalari asosida o'zgartirilishi mumkin.**

#### Tasdiqlangan COVID-19 holatlari

- COVID-19 tekshiruvi natijasi ijobiy chiqqan shaxslar Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi ko'rsatmalariga muvofiq 10 kun davomida o'z-o'zini karantinga olishi shart bo'ladi.
- Gamilton okrugi sog'liqni saqlash boshqarmasiga ko'ra, COVID-19 borligi gumon qilingan va kasallik alomatlari bo'lgan shaxslar alomatlar birinchi bor paydo bo'lganidan

keyin kamida 10 kun uyda qolishlari va yana isitma pasaytiruvchi dori-darmonlarsiz va simptomlar yaxshilangan holda kamida uch kun (72 soat) uyda qolishlari kerak.

#### Agar o'quvchi yoki xodimda maktabda alomatlar kuzatilsa, nima bo'ladi?

- ▶ O'quvchini darhol boshqalardan ajratib olish kerak; xodim bo'lsa, zudlik bilan ishdan javob berib, uyiga yuborish kerak
- ▶ O'quvchilar ota-onalarining/vasiylarining transportini kutish uchun boshqalardan uzoq bo'lgan belgilangan joyda turadilar
  - ▶ Hamshira poliklinikasiga kun davomida tashrif buyuradigan barcha o'quvchilar va xodimlar ehtiyot chorasi sifatida niqob taqishlari shart
  - ▶ Hamshira xodimlar shaxsiy himoya anjomlarini kiyadilar va imkon qadar ijtimoiy masofani saqlaydilar
  - ▶ Agar ota-ona / vasiy o'quvchini olib ketishdan oldin alomatlar kuchayib ketsa, okrug shoshilinch tibbiy yordam uchun transportni tashkillashtirishi mumkin

#### Yaqin kontaktda bo'lgan shaxs ta'rifi

\* Yaqin kontaktda bo'lganlar deyilganda, COVID-19 borligi aniqlangan shaxsdan u shaxsda bu kasallik borligi aniqlanishi yoki uning alomatlari boshlanishidan oldingi 48 soat ichida jami 15 daqiqa davomida niqob bilan va niqobsiz 3-6 futdan ortiq bo'lmagan masofadagi yaqinlikda bo'lgan har qanday inson tushuniladi.

#### Yaqin kontaktda bo'lganlar uchun karantin protokollari

Xodimlar va oilalarda, agar COVID-19 ta'sirida bo'lgan bo'lsalar, quyidagi ikkita variant bo'ladi:


- COVID-19 testisiz 10 kunlik karantin
  - Yaqin kontaktda bo'lganlar, COVID-19 borligi tasdiqlangan shaxs bilan oxirgi marta kontaktda bo'lgan kundan boshlab 10 kun davomida karantinda bo'lishlari kerak. Agar 10 kunlik karantindan keyin hech qanday alomatlar bo'lmasa, maktabga qaytishlari mumkin. Ushbu variantda COVID-19 testi talab qilinmaydi.
- Salbiy COVID-19 testi bilan 7 kunlik karantin
  - Yaqin kontaktda bo'lganlar, COVID-19 borligi tasdiqlangan shaxs bilan oxirgi marta kontaktda bo'lgandan boshlab 7 kun davomida karantinda bo'lishlari kerak. Agar 7 kunlik karantindan keyin hech qanday alomatlar bo'lmasa va COVID-19 testi salbiy chiqqan bo'lsa, maktabga qaytishlari mumkin. Tezkor test yoki PTSR testi karantinning 5-kunidan oldin bajarilishi kerak. Test natijalari maktabga qaytishdan oldin Sycamore maktab okrugi bo'yicha Kontaktda bo'lganlarni kuzatish mutaxassis Susan Murphy (murphys@sycamoreschools.org) ga yetkazilishi kerak. Test o'tkazuvchi muassasalar ro'yxatini ko'rish uchun [bu yerni bosing](#) va sahifaning pastki qismiga o'ting.

10 kunlik variantda ham, 7 kunlik variantda ham, kontaktda bo'lgandan boshlab 14 kungacha simptomlarni kuzatishni davom ettirish tavsiya etiladi. Oilalar va xodimlar, agar ular buni eng maqbul variant deb hisoblasalar, yaqin kontaktda bo'lganlar uchun CDC'ning tavsiya etgan 14



kunlik karantiniga rioya qilishlari ham mumkin. COVID-19 borligi tasdiqlangan shaxslar, testlardan qat'iy nazar, 10 kun davomida o'z-o'zini izolyatsiya qilishlari kerak bo'ladi.

## Karantin qoidalarini



\*This flowchart applies only to COVID-19 exposures that occurred within a K-12 classroom setting. It is not applicable to exposure in the community, extracurricular, or sports environment.

\*\*If masking has not been implemented, local health departments (LHDs) may use this workflow if it can be established that the person WITH COVID-19 and individuals within 3 to 6 feet of the infected person were consistently and correctly wearing

Ohio Department of Health

## Emlashning kontaktda bo'lganlarni kuzatishga ta'siri

Gamilton okrugi sog'liqni saqlash boshqarmasiga ko'ra, to'liq emlangan o'quvchilar va xodimlar, agar ularda simptomlar yo'q bo'lsa, karantindan voz kechishlari mumkin. Shunga qaramay, ular kontaktda bo'lgandan boshlab 14 kun davomida simptomlarni kuzatishi kerak. (2021-yil avgust)

Emlanish holati to'g'risida ixtiyoriy ravishda xabar berish bizga o'quvchi yoki xodimning karantinga olish kerak yoki kerak emasligini to'g'ri aniqlashga yordam beradi. Emlanish holati va tegishli hujjatlarni Yakuniy shakllarni taqdim etib yoki maktab hamshirasi bilan bog'lanib, ixtiyoriy ravishda xabar berishingiz mumkin. Ma'lumotlar sir saqlanadi va faqat COVID-19 bo'yicha kontaktda bo'lganlarni kuzatishda yordam berish uchun ishlatiladi.

## O'quvchilar uchun kontaktda bo'lganlarni kuzatishga niqob ta'qibning ta'siri

Gamilton okrugi sog'liqni saqlash boshqarmasiga ko'ra, agar virus borligi tasdiqlangan shaxs ham, u bilan yaqin aloqada shaxs ham tegishlicha niqob ta'qib yurgan bo'lsa va aniqlangan yaqin aloqada bo'lgan shaxs(lar)da hech qanday alomatlar bo'lmasa, yaqin aloqada bo'lgan(lar) karantindan voz kechishlari mumkin. (2021-yil avgust)

## COVID-19 haqida axborot paneli va holatlar haqida xabar berish

O'quvchilar, oilalar va xodimlar har juma kuni veb-saytimizning Sog'lom Aves (Healthy Aves) bo'limida joylashtiriladigan har haftalik COVID-19 bo'yicha ma'lumotlar paneli orqali har haftalik COVID-19 ma'lumotlarini ko'rib borishlari mumkin: [www.sycamoreschools.org](http://www.sycamoreschools.org)

Har safar bizning maktablarimizga COVID-19 borligi tasdiqlangan holat to'g'risida xabar berilsa, bino ma'muriyati okrug ma'murlari, okrugimizning aloqada bo'lganlarni kuzatish mutaxassisleri va Gamilton okrugi sog'liqni saqlash boshqarmasi (HCPH) bilan hamkorlikda COVID-19 bo'yicha bino miqyosida javob choralarini protokolini boshlaydilar. Buning bir qismi oilalarga, o'quvchilarga va xodimlarga xabar berish uchun ko'p pog'onali muloqotlarni o'z ichiga oladi:

1. Birinchidan, virus borligi tasdiqlangan shaxsning oilasiga u shaxsni 10 kunlik izolyatsiyaga olish zarurligi va maktabga qaytish sanasi to'g'risida okrug xabar beradi.
2. Virus borligi tasdiqlangan shaxsning o'qituvchisi(o'qituvchilari)ga alohida xabar beriladi.
3. Yaqin aloqada bo'lgan deb tasniflangan o'quvchilar oilalariga elektron pochta orqali karantin zarurligi to'g'risida xabar beriladi. Xuddi shu narsa yaqin aloqada bo'lgan xodimlar uchun ham amalga oshiriladi.
4. Virus borligi tasdiqlangan shaxsning sinfdoshlarining oilalariga elektron pochta orqali sinfda virus bor bo'lgan o'quvchi aniqlangani, lekin ularning bolasi u bola bilan yaqin aloqada bo'lgani aniqlanmaganligi haqida xabar beriladi.
5. Virus aniqlangan o'quvchi o'qiydigan maktabda o'qiydigan o'quvchilarning barcha oilalarga har hafta elektron pochta xabarlar yuboriladi.

## COVID-19 ma'lumotlarini kuzatib borish

2020-yil avgust oyida tashkil etilgan Sycamore ma'lumotlarni baholash riski guruhi (Sycamore Data Assessment Risk Team,DART), Ta'lim boshqarmasi, mahalliy sog'liqni saqlash va tibbiyot mutaxassislaridan iborat. DART har payshanba kuni yig'ilib, quyidagi ma'lumotlarning 7 kunlik tendentsiyalarini baholaydi:

- Shtat ma'lumotlari
  - O'tkazilgan testlar soni va ijobiy holatlar %
- Gamilton okrugi ma'lumotlari
  - Yangi holatlar kuniga har 10 ming kishining nechtasiga to'g'ri kelishi
  - Emlashlar ulushi
  - Aholi orasidan yuqishning CDC darjasi ma'lumotlari
- Asosiy pochta indeksi ma'lumotlari (45242, 45249)
  - Yangi holatlar kuniga har 10 ming kishining nechtasiga to'g'ri kelishi
  - O'tkazilgan testlar soni va ijobiy holatlar %
  - Emlashlar ulushi
  - Aholi orasidan yuqishning CDC darjasi ma'lumotlari
- Maktab ma'lumotlari
  - Kundalik davomat ma'lumotlari
  - Kundalik hamshiralik ishi ma'lumotlari

- COVID-19+ borligi tasdiqlangan holatlar soni
- Karantindagi o'quvchilar/xodimlar soni

Tibbiy sug'urtaning izchilligi va hisobdorligi to'g'risidagi Qonun (HIPAA) cheklovlari tufayli aholi orasida tarqalish ko'rsatkichlariga keladigan bo'lsak, hozirgi vaqtda sog'liqni saqlash ma'lumotlari uchun eng kichik geografiya - bu okrug xabar berishi mumkin bo'lgan pochta indeksi yurisdiksiyasidir. 2020-21 o'quv yili davomida okrug rezidentlari va ota-onalardan tashkil topgan DART guruhi (Ma'lumotlarni baholash xavfi guruhi, Data Assessment Risk Team) shifokorlar, ma'lumotlar tahlilchilari va sog'liqni saqlash bo'yicha komissardan iborat bo'lib, ikkita asosiy pochta indeksi (45242 va 45249) bo'yicha bir to'xtamga keldilarki, Sycamore maktab okrugiga yozilganlarning qariyb 90% ni tashkil etuvchi qismi bizning okrug demografiyasi uchun aholi orasida virus tarqalishini kuzatish uchun eng yaxshi imkoniyatga egalar. Boshqa pochta indeksleri (45140, 45236 va 45241) okrug chegarasi doirasida o'z ulushiga ega bo'lib, ular maktab okrug doirasida nisbatan kichik ulushni tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir pochta indeksining 10% dan kamrog'i Sycamore maktab okrug doirasida ulush egallagan.

#### Ta'lim modellarini o'zgartirish

Maqsadimiz o'quvchilarni o'quv yili davomida yuzma-yuz o'qitishda davom etish. Ammo, bilamizki, sog'liqni saqlash sharoitining keskin o'zgarishi, bizning o'quv modelimizda bino va okrug bo'yicha o'zgartirishlar kiritishga olib kelishi mumkin. Bizning DART guruhimiz maktab va sog'liqni saqlash ma'lumotlarini kuzatishni davom ettiradi va masofaviy ta'limga o'tish zarur yoki zarur emasligi to'g'risida maslahat beradi.

2021-yil 4 -avgustda Sycamore Ta'lim Kengashi, zarur bo'lganda, bino yoki okrug darajasida masofaviy ta'limga o'tish va an'anaviy ta'limga o'tish bo'yicha okrug inspektorining vakolatlarini davom ettirishini tasdiqlovchi qaror qabul qildi.

#### O'z-o'zini izolyatsiya qilish va karantin paytida ta'lim olishni qo'llab-quvvatlash

COVID-19 tashxisi qo'yilgan yoki u bilan yaqin aloqada bo'lgan o'quvchilarga o'z-o'zini izolyatsiya qilish yoki karantin davrida o'quv materiallari va ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Xuddi o'tgan yili bo'lgani kabi, haftalik yo'riqnomalar E'lonlar taxtasida taqdim etib boriladiki, o'quvchilar uy sharoitida bo'lganda ham ta'lim jarayonidan uzilib qolmaydilar. Bu haftalik yo'riqnomalar o'quv manbalariga havolalarni o'z ichiga oladi. Farzandingizning o'qituvchisi (o'qituvchilari) bola maktabdan uzoqda bo'lgan vaqt mobaynida qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha ma'lumot bilan sizga bog'lanishadi.

#### Sog'lom fikrlar

Biz bilamizki, o'quvchilarimiz aqli va tanalari sog'lom bo'lgandagina ilm olish bilan shug'ullana oladilar. Shuningdek, har bir muvaffaqiyatli o'zlashtiradigan o'quvchining ortida bolaning o'sishiga yordam beradigan sog'lom fikrli kattalar jamoasi turishini ham bilamiz. Barcha o'quvchilarni yuzma-yuz ta'limga qaytarayotgan ekanmiz, biz o'quvchilar, oilalar va xodimlar juda ko'p hissiyotlarni boshdan kechirayotganini bilamiz va biz har bir insonni tushunishga, ularning hissiy ehtiyojlarini tasdiqlashga va yordam berishga jiddiy qaraymiz.

O'quvchilarga / oilalarga ko'mak:

Cincinnati Children's bolalar kasalxonasi qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga maktabda tashkil etilgan ruhiy salomatlik xizmatlarini taklif qilishni davom ettiradi.

- Terapevt tomonidan maktabda olib boriladigan yuzma-yuz mashg'ulotlarda ishtirok etishingiz mumkin
- Virtual qabullarni afzal ko'ruvchi / unga muhtoj o'quvchilar uchun teletibbiyot qabullari ham tashkil etiladi
- Bizning ilg'or amaliyot hamshiramiz (APRN) orqali tibbiy xizmatlardan maktabda ruhiy salomatlik xizmatlaridan foydalanadigan o'quvchilar va oilalar foydalanishlari mumkin bo'ladi.
- Cincinnati Children's shifoxonasi terapevti yoki APRN qabullari tibbiy qabullar hisoblanadi va Cincinnati Children's shifoxonasi bolalar kasalxonasining sog'liqni saqlash va xavfsizlik protokollari talab qilinadi. Ayni paytda, qabulga kelgan har qanday o'quvchilar yoki oilalar niqob taqishlari shart.

Bizning maktab binolarimiz ijobiy xulq-atvor aralashuvlari va qo'llab-quvvatlovlarini (PBIS) tizimini amalga oshirishda davom etadi. Ijobiy xulq-atvor aralashuvi va qo'llab-quvvatlovi (PBIS) - bu maktabda xulq-atvorni qo'llab-quvvatlash tizimi hisoblanadi. PBIS maktabning ijobiy muhitini yaratish uchun o'quvchilarning xulq-atvorini aniqlash, o'qitish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha faol strategiyalarga e'tibor qaratadi. Bizning binolar PBIS ning 4 ta asosiy ustunini o'z ichiga oladi, jumladan:

- Xulq-atvor bo'yicha aniq belgilangan kutilmalar
- Maktabda talab qilinadigan xulq-atvorni aniq o'rgatish
- O'quvchilarning kutilgan xulq-atvorni namoyish etganliklarini e'tirof etish
- Xulq-atvor shakllanishidan oldin uni tuzatish va ayni paytda qabul qilinadigan muqobil xulq-atvorni o'rgatish

Bizning K-8 binolarimizda biz to'rtta aniq belgilangan xulq-atvor kutilmalarini belgilab olganmiz.

Ular quyidagilar:

- Hurmat ko'rsatish
- Mas'uliyatli bo'lish
- Xavfsiz bo'lish
- Muammolarni hal qiluvchi bo'lish

Sycamore o'rta maktabida biz to'rtta aniq belgilangan xulq-atvor kutilmalarini belgilab olganmiz.

Ular quyidagilar:

- Hurmat ko'rsatish
- Mas'uliyatli bo'lish
- Xavfsiz bo'lish
- Faol bo'lish

Modellashtirish, aniq belgilangan ta'limni berish va o'quvchilardagi maktabda biz ko'rishni istagan xulq-atvorlarini tan olish orqali biz yanada ijobiy va faol yondashuvni qo'llayapmiz. Bu maktabning ijobiy madaniyatini targ'ib qiladi va o'quvchilarni maktabda o'zini xavfsiz va sog'lom his qilishiga yordam beradi.

## ALOHIDA SAHIFAMI?

2021-22 o'quv yili davomida sabr-toqatli bo'lishingiz, bizni tushunishingiz va hamkorlik qilishingiz uchun oldindan rahmat! O'quvchilar va xodimlarning xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlash bilan bir qatorda, biz o'z vazifamiz va qarashlarimizga e'tibor qaratamiz:

- O'quvchi bola uchun inklyuziv va innovatsion ta'lim imkoniyatlari orqali akademik mukammallik madaniyatini rivojlantiring.
- Dunyo miqyosida raqobatbardosh olamda barcha o'quvchilarga o'z potentsialini to'liq ishga solishga imkoniyat bering.

So'nggi 18 oy hamma uchun juda qiyin bo'ldi. Ammo biz Sycamore oilamiz tomonidan amalga oshirilgan barcha ijobiy ishlar haqida mulohaza yuritganimizda, biz yanada qiyin ishlarni qila olishimiz va muvaffaqiyat qozonishimiz mumkinligini bilamiz. Biz barcha o'quvchilarimizni o'quv binolarga qaytishini va maktabda ularga eng a'lo maktab tajribasini taqdim etishni orziqib kutamiz!

Yil davomida amalga oshirib boriladigan yangilanishlar haqida xabardor bo'lib borish uchun okrug va farzandingiz maktabidan keladigan elektron pochta xabarlarini tekshirib boring. Yangilangan ma'lumotlar veb-saytimizning "Sog'lom Aves" bo'limiga qo'shib boriladi: [www.sycamoreschools.org](http://www.sycamoreschools.org).